E- Global Congress
Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.
Date: 29th October 2024
Website: https://eglobalcongress.com/index.php/egc
ISSN (E): 2836-3612

KORPUS MA'LUMOTLARIGA ASOSLANGAN TA'LIM YONDASHUVINI UMUMTA'LIM MAKTABIDA QO'LLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Bahronov Nodirbek Aliyevich
Buxoro davlat universiteti Fakultetlararo
chet tillari kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
e-mail: bahronovnodirbek@gmail.com

Annotatsiya
Maqolada korpus ma'lumotlariga asoslangan ta'lim (data-driven learning) yondashuvining nazariy asoslari yoritilib, uni umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida kollokatsion ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari asoslanadi. Autentik til materiali bilan ishlash, konkordans tahlili orqali mustaqil izlanish, o'quvchi nutqidagi xatolarni korpus ma'lumotlari bilan solishtirish va o'qituvchining yo'naltiruvchilik faoliyati asosiy shart-sharoitlar sifatida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: korpus ma'lumotlariga asoslangan ta'lim, data-driven learning, pedagogik shart-sharoit, konkordans, autentik material, o'qituvchi roli.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОРПУСНЫХ ДАННЫХ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Бахронов Нодирбек Алиевич
Независимый соискатель кафедры межфакультетских иностранных языков Бухарского государственного университета

Аннотация
В статье освещаются теоретические основы обучения на основе корпусных данных (data-driven learning) и обосновываются педагогические условия его применения для формирования коллокационных навыков учащихся старших классов общеобразовательных школ. В качестве основных условий выделены работа с аутентичным языковым материалом, самостоятельный поиск

E-Global Congress
Open Access | Peer Reviewed | Conference

ISSN (E): 2836-3612

через анализ конкордансов, сопоставление ошибок в речи учащихся с данными корпуса и направляющая деятельность учителя.

Ключевые слова: обучение на основе корпусных данных, data-driven learning, педагогические условия, конкорданс, аутентичный материал, роль учителя.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR APPLYING DATA-DRIVEN LEARNING IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Bahronov Nodirbek Aliyevich
Independent researcher, Department of Interfaculty
Foreign Languages, Bukhara State University
e-mail: bahronovnodirbek@gmail.com

Abstract
The article describes the theoretical foundations of data-driven learning and substantiates the pedagogical conditions for applying it to develop collocational skills of upper-grade students in general secondary schools. Working with authentic language material, independent discovery through concordance analysis, comparing errors in students' speech with corpus data, and the guiding role of the teacher are identified as the main conditions.

Keywords: data-driven learning, pedagogical conditions, concordance, authentic material, teacher's role, collocation.

KIRISH

An'anaviy chet tili darsida o'quvchi qoidani o'qituvchidan oladi, so'ng uni mashqlarda qo'llaydi. Korpus ma'lumotlariga asoslangan ta'limda esa bu jarayon teskari tartibda kechadi: o'quvchi avval tilning real misollarini kuzatadi, ulardagi qonuniyatni o'zi aniqlaydi va shundan keyin xulosa chiqaradi. Bu yondashuvni XX asrning 80–90-yillarida T. Johns «data-driven learning» (DDL) deb nomlagan [6].

DDL bo'yicha tadqiqotlarning aksariyati oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan. Umumta'lim maktabida, ayniqsa 14–15 yoshli o'quvchilar bilan ishlashda bu yondashuvni qo'llash o'ziga xos shart-sharoitlarni talab qiladi. Maqolaning maqsadi DDL yondashuvini yuqori sinflarda kollokatsion

E-Global Congress
Open Access | Peer Reviewed | Conference

ISSN (E): 2836-3612

ko‘nikmalarni shakllantirishda qo‘llashning pedagogik shart-sharoitlarini asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

T. Johns DDL ning asosiy g‘oyasini «o‘quvchi – tadqiqotchi» tamoyili bilan ifodalagan: o‘quvchi konkordans qatorlarini kuzatib, til haqidagi savollarga o‘zi javob topadi [6]. C. Gabrielatos korpusdan foydalanishning turli darajalarini ajratib, o‘quvchining korpus bilan bevosita ishlashi bilan bir qatorda o‘qituvchi tanlagan materiallar bilan ishlash ham samarali ekanini ta’kidlaydi [4]. A. Boulton esa kompyutersiz, ya’ni oldindan chop etilgan konkordanslar bilan ishlash ham past darajadagi o‘quvchilar uchun foydali ekanini eksperimental tarzda isbotlagan [1].

A. Boulton va T. Cobb 64 ta tadqiqot natijalarini umumlashtirgan meta-tahlilda DDL ning umumiy samaradorligi yuqori ekanini, ayniqsa lug‘at va so‘z birikmalarini o‘rganishda katta ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan [2]. G. Gilquin va S. Granger esa DDL ni qo‘llashda o‘qituvchining tayyorgarligi va materialni o‘quvchi darajasiga moslashtirish muhim omil ekanini qayd etadi [5]. A. Chambers va U. Römer ham korpusdan foydalanish o‘quvchilarda tilga nisbatan tadqiqotchilik munosabatini shakllantirishini ko‘rsatgan [3; 8].

Tadqiqotda nazariy tahlil, umumlashtirish, modellashtirish va Buxoro viloyati umumta’lim maktablarining 8–9-sinflarida o‘tkazilgan darslarni pedagogik kuzatish usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nazariy tahlil va amaliy kuzatishlar asosida DDL yondashuvini umumta’lim maktabida qo‘llashning to‘rtta pedagogik shart-sharoiti aniqlandi.

Birinchi shart – autentik til materiali bilan ishlash. O‘quvchiga beriladigan misollar sun’iy emas, balki tilning real qo‘llanishidan olingan bo‘lishi kerak. Biroq 8–9-sinf o‘quvchilari uchun misollar uzun va murakkab bo‘lmasligi lozim. Shu bois maktab sharoitida SkELL kabi qisqa va tushunarli gaplarni saralab beruvchi korpuslarni tanlash maqsadga muvofiq [7]. Autentik material darslik mavzulari bilan bog‘langanda o‘quvchining qiziqishi ortadi.

E-Global Congress
Open Access | Peer Reviewed | Conference

ISSN (E): 2836-3612

Ikkinchi shart – konkordans tahlili orqali mustaqil izlanish. O‘quvchi konkordans qatorlarini kuzatib, savolga javob topishi kerak. Masalan, «mistake so‘zi bilan qaysi fe’l keladi?» degan savolga o‘quvchi 10–15 ta qatorni ko‘rib, make fe’lining takrorlanishini o‘zi payqaydi. Maktab o‘quvchisi uchun izlanish savollari aniq va bosqichma-bosqich berilishi lozim: avval «toping», so‘ng «guruhlang», keyin «qoida tuzing».

Uchinchi shart – o‘quvchi nutqidagi xatolarni korpus ma’lumotlari bilan solishtirish. O‘quvchi o‘z yozma va og‘zaki nutqidagi birikmalarni korpus bilan tekshirib borishi kerak. Bu uning o‘z nutqini nazorat qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. O‘qituvchi xatoni tuzatmasdan, faqat belgilab qo‘yadi, o‘quvchi esa to‘g‘ri variantni korpusdan topadi.

To‘rtinchi shart – o‘qituvchining yo‘naltiruvchilik faoliyati. DDL da o‘qituvchi bilim manbai emas, balki izlanishni tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi shaxsga aylanadi. U so‘zlarni tanlaydi, izlash savollarini tuzadi, o‘quvchilar topgan xulosalarni umumlashtiradi va noto‘g‘ri xulosalarni tuzatadi. Yosh o‘quvchilar korpusdagi ko‘p sonli misollar orasida adashib qolishi mumkin, shuning uchun o‘qituvchining yo‘naltiruvchi roli maktabda oliy ta’limdagiga qaraganda muhimroq.

Bu shart-sharoitlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Masalan, autentik material bo‘lmasa, mustaqil izlanish ma’nosiz bo‘ladi; o‘qituvchining yo‘naltiruvchi roli bo‘lmasa, o‘quvchi xatosini korpus bilan to‘g‘ri solishtira olmaydi. Shuningdek, internet imkoniyati cheklangan maktablarda bu shart-sharoitlar o‘qituvchi oldindan tayyorlagan konkordans varaqlari orqali ham ta’minlanishi mumkin [1].

XULOSA

Korpus ma’lumotlariga asoslangan ta’lim yondashuvi umumta’lim maktablarining yuqori sinflarida kollokatsion ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali vosita bo‘la oladi. Buning uchun to‘rtta pedagogik shart-sharoit ta’minlanishi zarur: autentik til materiali bilan ishlash, konkordans tahlili orqali mustaqil izlanish, o‘quvchi nutqidagi xatolarni korpus ma’lumotlari bilan solishtirish va o‘qituvchining yo‘naltiruvchilik faoliyati. Ushbu shart-sharoitlar 14–15 yoshli o‘quvchilarning yosh va til darajasiga moslashtirilgan holda qo‘llanishi kerak.

E-Global Congress
Open Access | Peer Reviewed | Conference

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boulton A. Data-driven learning: taking the computer out of the equation // Language Learning. – 2010. – Vol. 60, No. 3. – P. 534–572.
2. Boulton A., Cobb T. Corpus use in language learning: a meta-analysis // Language Learning. – 2017. – Vol. 67, No. 2. – P. 348–393.
3. Chambers A. Integrating corpus consultation in language studies // Language Learning & Technology. – 2005. – Vol. 9, No. 2. – P. 111–125.
4. Gabrielatos C. Corpora and language teaching: just a fling or wedding bells? // TESL-EJ. – 2005. – Vol. 8, No. 4. – P. 1–37.
5. Gilquin G., Granger S. How can data-driven learning be used in language teaching? // The Routledge Handbook of Corpus Linguistics / ed. A. O'Keeffe, M. McCarthy. – London: Routledge, 2010. – P. 359–370.
6. Johns T. Should you be persuaded: two samples of data-driven learning materials // English Language Research Journal. – 1991. – Vol. 4. – P. 1–16.
7. Kilgarriff A., Marcowitz F., Smith S., Thomas J. Corpora and language learning with the Sketch Engine and SKELL // Revue française de linguistique appliquée. – 2015. – Vol. 20, No. 1. – P. 61–80.
8. Römer U. Corpus research applications in second language teaching // Annual Review of Applied Linguistics. – 2011. – Vol. 31. – P. 205–225.

E-Global Congress
Open Access | Peer Reviewed | Conference